

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 139 (1738), 2026-yil 10-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA BELARUS O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI MUNOSABATLAR SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning taklifiga binoan 8-9-iyul kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



9-iyul kuni Minsk shahridagi Mustaqillik saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni tantanali kutib olish marosimi o‘tkazildi.

Saroy oldidagi maydonda ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

Davlatimiz rahbarini Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko samimiy kutib oldi.

Davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar a‘zolari ishtirokida muzokara o‘tkazdilar.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari

so‘nggi yillarda O‘zbekiston bilan Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidladi.

Ushbu tashrifga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlari, siyosiy maslahatlashuvlar, tahliliy doiralar uchrashuvlari, O‘zbekiston madaniyati kunlari hamda boshqa tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

O‘zaro savdo hajmi barqaror sur‘atda o‘sib borayotgani mamlakatlar bilan qayd etildi. So‘nggi besh yilda bu ko‘rsatkich qariyb 3 barobar oshib, o‘tgan yil yakuniga ko‘ra salkam 1 milliard dollarga yetdi. Joriy yilning ortda qolgan davrida uning hajmi yana 30 foizga oshdi. 360 ta qo‘shma korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Yetakchilar kuni kecha o‘zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha aniq harakatlar kelishib olingani hamda qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, farmatsevtika, elektrotexnika, yengil sanoat, mebelsozlik va sanoatning boshqa tarmoqlarida yangi kooperatsiya loyihalaridan iborat chora-tadbirlar rejasini qabul qilinishini olqishladilar.

O‘zbekiston tinch atomdan foydalanish va shu sohada infratuzilmani barpo etish borasidagi tajribani almashishdan manfaatdor ekani bildirildi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvni izchil davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Yig‘ilish davomida qo‘shma Hukumatlararo komissiya hamraislarning hisobotlari hamda muzokaralar kun tartibi yuzasidan aniq takliflari ham tinglandi.

Yakunda Prezident Shavkat Mirziyoyev hamkasbi Aleksandr Lukashenkoga rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga kelishni taklif etdi.

Bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, davlat rahbarlari huzurida qator ikki tomonlama hujjatlar almashildi. Jumladan:

— 2026-2030-yillarda savdo-iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini;

— O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Belarus Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan maslahatlashuvlar dasturi;

— 2005-yil 19-yanvardagi “Fuqarolarning o‘zaro qatnovlari to‘g‘risida”gi bitimga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida bayonnomasi;

— Belarus Respublikasi hududida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkiliy asosda qabul qilish va jalb etish to‘g‘risida bitim;

— O‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan madaniyat sohasidagi hamkorlik dasturi;

— O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Belarus Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasida 2027-2028-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini;

— O‘zaro sayyohlar oqimini ko‘paytirish va turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma harakatlar rejasini;

— 2026-2028-yillarda agrosanoat majmuidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

— O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi hamda Belarusning “Belleprom” davlat konserni o‘rtasida yengil sanoat sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Belarus Respublikasi Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi o‘rtasida aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi hamkorlik bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumini;

— O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Belarus Respublikasi Moliya vazirligi o‘rtasida moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumini;

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Belarus strategik tadqiqotlar instituti o‘rtasida O‘zbekiston — Belarus ekspertlar kengashini ta’sis etish to‘g‘risida memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Belarus Respublikasi Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat vazirligi o‘rtasida agrosanoat sohasida investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ahdlashuv memorandumini;

— O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Belarus Milliy fanlar akademiyasi o‘rtasida ilmiy-texnik hamkorlik bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumini.

Shuningdek, tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Belarus Respublikasi Fundamental tadqiqotlar jamg‘armasi o‘rtasida ham memorandum imzolandi.

➤ Davomi 2-betda

Yangi O‘zbekiston ruhi

TURKIY ELLARNING BIRDAMLIK BAYROG‘I

Bashariyat tarixida shunday buyuk zotlar o‘tganki, ularning nomi asrlar osha xalqlar va mamlakatlarni ezgulik, do‘stlik hamda ma’rifat g‘oyalari atrofida birlashtirib keladi. Milliy ma’naviyatimiz quyoshi, nazm mulki sohibqironi Mir Alisher Navoiy ana shunday mumtoz siymolardan biridir. Ulug‘ mutafakkirning qariyb olti asrlik vaqt sinovidan o‘tgan merosi bugun ham insoniyatga ma’naviy ozuqa berib, komillik sari yo‘l ko‘rsatmoqda.



Yangi O‘zbekiston sharoitida hazrat Navoiyga ehtirom davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, tom ma’noda xalqaro miqyos kasb etdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ta’sis etilgan “Turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hissasi uchun” Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti buning eng yorqin dalilidir.

➤ Davomi 5-betda

Kun mavzusi

OCHIQ MULOQOTGA TAYYORGARLIK

KO‘PLAB MUROJAATLAR JOYIDA HAL ETILYAPTI

Mamlakatimiz hayotidagi yana bir muhim voqeilik — davlatimiz rahbarining yurtimiz tadbirkorlari bilan o‘tkazilishi kutilayotgan navbatdagi ochiq muloqotga tayyorgarlik qizg‘in pallaga kirdi. Oltinchi bor tashkil etilayotgan uchrashuvga hozirlik har yilgidan ko‘ra faol, qolaversa, mutlaqo yangi darajada. Barcha soha va tarmoq tadbirkorlari bilan uchrashuvlar, biznes vakillaridan tushayotgan murojaatlar, taklif va tashabbuslar soni avvalgi yillardagiga nisbatan ancha yuqori.



Chunki yurtimizda yil davomida tadbirkorlar bilan ishlash, doimiy muloqotga bo‘lish, muammolariga yechim berish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan, bu borada aniq tizim ishlayapti. Ochiq muloqotga tayyorgarlik esa ana shu jarayonning asosiy qismi. Unda

ko‘tariladigan aksariyat masalalarning yechimi bir necha tadbirkorning emas, balki butun soha va tarmoqlar rivojiga xizmat qiladigan tegishli farmon va qarorlarda aks etadi.

➤ Davomi 4-betda

TASHQI SIYOSAT MAYDONINI FAOL KENGAYTIRAYOTGAN MAMLAKAT

Xorijiy ekspertlar oliy darajadagi O‘zbekiston – Belarus sammiti haqida



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 8-9-iyul kunlari Belarusga rasmiy tashrifi o‘zaro munosabatlar rivojida muhim bosqich bo‘lib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy muloqot

va amaliy hamkorlikni kengaytirishga yangi sur‘at bag‘ishladi.

➤ Davomi 2-betda

BUNYODKORLIK VA HAMKORLIK MAKONIGA AYLANGAN YANGI MARKAZIY OSIYO

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosati 2017-yildan boshlab sifat jihatidan yangi, ochiq va tashabbuskor bosqichga ko‘tarildi. Bunda Markaziy Osiyoga alohida e’tibor qaratilib, Prezidentimiz mintaqani “yechilmagan nizolar maydoni”dan ishonch, hamkorlik va birgalikda taraqqiy etish makoniga aylantirishni O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgiladi.

Bu siyosatning o‘zagi — kuch ishlatish yoki bir tomonlama harakatlar emas, balki muzokara, preventiv diplomatiya, o‘zaro manfaatdorlik va xalqaro huquq ustuvorligiga tayangan tinchlikparvarlik konsepsiyasidir.

Tarixan juda qisqa davr ichida O‘zbekiston nafaqat qo‘shni davlatlar bilan o‘nlab yillar

davom etgan chegara va suv muammolarini muzokaralar yo‘li bilan hal etdi, balki BMT, UNESCO, SHHT, TDT, MDH kabi nufuzli minbarlarda umummintaqaviy va global ahamiyatga molik o‘nlab tashabbuslarni ilgari surdi.

➤ Davomi 3-betda



YURTIMIZ ISLOM DUNYOSINING INTELLEKTUAL KELAJAGINI BIRLASHTIRMOQDA

Jahon ulamolari tashabbuslarimizni yangi sivilizatsion jarayon deya baholadi

6

► **Boshlanishi 1-betda**

Tashrif yakuni bo'yicha O'zbekiston va Belarus yetakchilari Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish o'g'risidagi deklaratsiyani imzoladi. Shuningdek hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan salmoqli hujjatlar to'plami qabul qilindi. Erishilgan kelishuvlar O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlab, uzoq muddatli sheriklik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

► Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston yetakchisi
ta'kidlaganidek, mazkur hujjat
davlatlararo hamkorlikni
mustahkamlashda yangi
sahifa ochib, tomonlarning
ko'p qirrali sheriklikni
uzoq muddatli rivojlantirish
borasidagi qat'iy intilishini
tasdiqlaydi.

Davlat rahbarlari siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish hamda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash muhimligini ta'kidladilar.

Yakunda bugungi tarixiy tashrif natijalari strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga, hamda ikki mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovonligiga har tomonlama xizmat qilishi ta'kidlandi.



Yan CHEN,
Shanxay global boshqaruv
va mintaqaviy tadqiqotlar
akademiyasi direktori:

**— O‘zbekiston – Belarus
munosabatlari MDH hududidagi
o‘zaro hamkorlikning jadal
rivojlanayotganiga yorqin misoldir.**

So'nggi yillarda ikki mamlakat
o'rtasidagi sheriklik sifat jihatdan
yangi bosqichga ko'tarilgani iqtisodiy

— O'zbekiston Prezidentining Belarusga amalga oshirgan tashrifi MDH hududidagi muhim siyosiy voqealardan biri hisoblanadi. Muzokaralar markazida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi, investitsiyaviy sheriklik, transport-logistika va humanitar aloqalarni kengaytirish masalalari turadi.

qilgani. Ushbu yo'nalishning aksariyati O'zbekiston iqtisodiyotini keng ko'lamli modernizatsiya qilish dasturi doirasida katta talabga ega.



Murad SADADDINOV,
ozarbayjonlik siyosiy sharhlovchi,
xalqaro ekspert:

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik oddiy savdo munosabatlaridan ancha ilgarilab ketgan. Gap qo'shma

A vibrant, stylized illustration of a busy port. In the foreground, a red semi-truck with a white trailer is parked. To its right, a yellow forklift is visible. In the background, a large yellow gantry crane stands over a blue cargo ship loaded with colorful containers. A yellow cargo plane is flying in the sky above the ship. The scene is set against a bright blue sky with white clouds.

TRANSPORT-LOGISTIKA YO'NALISHI HAM BUNDAN KAM AHAMIYATGA EGA EMAS. DENGIZGA TO'G'RIDAN TO'G'RI CHIQISH IMKONIYATIGA EGA BO'LMAGAN O'ZBEKISTON AN'ANAVIY RAVISHDA TRANSPORT YO'NALISHLARINI KENGAYTIRISH VA YANGI EKSPORT YO'LAKLARINI YARATISHDAN MANFAATDOR.

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belarusga tashrifi, shubhasiz, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tarixi va taraqqiyotidagi muhim voqealardan biridir. Belarusda oliy darajadagi muzokaralar Minsk va Toshkent o'rtasidagi strategik sheriklikda yangi sahifa ochishini anglagan holda O'zbekiston yetakchisining tashrifi alohida e'tibor bilan qarshi olindi.

investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Unda tomonlar kun tartibidagi asosiy masalalar yuzasidan o'z pozitsiyalarini

Muzokaralar chog'ida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlash, sanoat kooperatsiyasi va hududlararo aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Belarus joriy yilning o'zida O'zbekiston bilan tovar ayirboshlash hajmini bir milliard dollarga yetkazishni, 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkichni ikki barobarga oshirishni rejalashtirmoqda.

O'zbekistonning demografik salohiyati

bo'lib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar davlat rahbarlari o'rtasidagi samimiy va ishonchli munosabatlar tufayli yuksak darajaga ko'tarilgan.

Minskdaqı muzokaralar yakunlari bo'yicha yangi investitsiyaviy, texnologik va ishlab chiqarish sohalariqa oid kelishuvlar imzolanishi kutilmoqda. Bu O'zbekiston uchun industriallashuvni jadallashtirish, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Aytishim lozimki, Belarusda Prezident Shavkat Mirziyoyevga O'zbekistonning atqoli siyosiy yetakchisi va buyuk vatanparvari sifatida chuqur ehtirom bilan munosabatda bo'lishadi.

Fikrimcha, bu tashrif — ko'p yillik o'zaro hurmat, ishonch va birgalikda rivojlanish istagi bilan birlashgan do'st davlatlar va qardosh xalqlarning, zamonamizning ikki yirik siyosiy rahbarining chinakam tarixiy uchrashuvidir.

“Dunyo” AA

YETAKCHI DAVLAR IKKI DAVLAT O'RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIKNI KENG YORITMOQDA

**Belarus ommaviy axborot vositalari O'zbekiston Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning Belarusga rasmiy tashrifini keng yoritib, ikki
tomonlama strategik sheriklik jadal rivojlanayotgani, iqtisodiy hamkorlik
kengayayotgani va ikki mamlakat o'rtasidagi gumanitar aloqalar
mustahkamlanayotganini ta'kidlamogda.**

Ularda Belarus va O'zbekiston hududlarining 6-8-iyul kunlari Minsk shahrida bo'lib o'tgan III forumiga alohida e'tibor qaratilgan. "SB. Belarus segodnya", "Minsk-Novosti" kabi yetakchi nashrlar va MDH Ijroiya qo'mitasi politsiyasi tushbu tadbiri erishilgan kelishuvlardan aniq qo'shma loyihalarni amalga oshirishga o'tish uchun muhim maydon bo'lganini yozdi. Nashrlarda muhokamalarining asosiy yo'nalishlari sanoat kooperatsiyasi, agrosanoat majmuasi, savdo, logistika, tibbiyot, turizm va gumanitar hamkorlik bo'lgani alohida qayd etilgan.

“BELTA” telegraf agentligi, MDH Ijroiya qoʻmitasi internet portali va boshqa axborot resurslari ham ikki mamlakat sanoat kooperatsiyasi rivojlanishini yoritmoqda. Nashrlarda Savdo-iqtisodiy hamkorlik boʻyicha hukumatlararo komissiyaning, mashinasozlik, qishloq xoʻjaligi texnikasini ishlab chiqarish va boshqa tarmoqlardagi qoʻshma loyihalarining oʻrniga urgʻu berilgan. Bunga misol sifatida Minsk traktor zavodi bilan hamkorlikda Nurafshon shahrida qishloq xoʻjaligi texnikasi ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyilgani, kabel mahsulotlari va boshqa sanoat yoʻnalishlaridagi loyihalar keltirilgan.

Nashrlar agrosanoat sohasidagi o'zaro hamkorlikka ham alohida e'tibor qaratdi. "BELTA" agentligi Belarus va O'zbekistonning 2030-yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi xomashyosi bo'yicha o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazishga qaratilgan, qo'shma ishlar rejasini tasdiqlanganini ma'lum qilgan.

Mahalliy OAV hududlararo aloqalar rivojini ham tashitadi oldi. “SB, Belarus segodnya” va “BELTA” nashrlari Farg’ona, Navoiy, Xorazm va Jizzax viloyatlari delegatsiyalarining Belarus hududlariga tashriflari haqida xabar berdi. Ikki mamlakat vakillari qishloq bo‘jaligi, sanoat, qayta ishlash, texnika va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini yetkazib berish, qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik istigibollari muhokama qildi.

“BELTA” agentligi va mamlakatning eng yoshi ulugʻ nashri boʻlgan “Zvyazda” gazetasi Belarus va Oʻzbekistonning zamonaviy sherikligi savdo munosabatlari doirasidan qibiq, yangi avlod texnologik hamkorligi tusini olayotganini bildirgan. Nashrlar ikki xalq doʻstligining tarixiy asoslari,

jumladan, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi o'zaro yordamga va 1966-yilgi zilziladan so'ng Toshkentni tiklashda belaruslik mutaxassislarning ishtirokiga e'tibor qaratgan.

 OAVlarda turizm sohasidagi hamkorlik mavzusi muhim o'rin egalladi. "BELTA" agentligi, "Odnako, jizn!" jurnali va boshqa ommabop internet resurslar O'zbekistonga kelayotgan belaruslik sayohatlar soni ortib borayotganini xabar qildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yildamamlakatimizga Belarusning 32 mingdan ortiq fuqarosi tashrif buyurgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-may oylarida bu ko'rsatkich 14 ming kishidan oshgan. Nashrlarda "O'zbekistonning turizm takliflari kengayayotgani, madaniy-ma'rifiy, gastronomik, ekologik va boshqa yo'nalishlar rivojlanayotgani, shuningdek, ikkinchi mamlakat sayyohlik kompaniyalari o'rtasidagi alloqar faollashayotgani" qayd etdi.

Jurnalistlar ikki tomonlama munosabatlarining gumanitar jihatlarini ham yoritmoqda. "Belarus 24" telekanali va "Minsk-Novosti" agentligi Minskda O'zbekiston madaniyati kunlari hamda O'zbek kinosi kunlari o'tkazilayotgani haqida xabar berdi. Tadbirlar doirasida Belarus jamoatchiligi O'zbekiston san'ati, kinematografiyasi, xalq hunarmandligi va madaniy an'analari bilan tanishmoqda.

Belarusning yetakchi bosma va elektron nashrlari sammit yekunlarini sarhisob qillar ekan, ikki mamlakat yetakchilarining o'zaro hurmat, ʻishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan strategik sheriklikni yanada mustahkamlash borasidagi qat'iy itilishlari haqida to'xtalib o'tdi. Oliy darajada erishilgan "O'zbekiston — Belarus kelishuvlari, imzolangan hujjatlar va belgilangan amaliy chora-tadbirlar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, sanoat, ilmiy-texnik, madaniy-gumanitar va hududlararo sohalar da "zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qo'shimcha turki berishga qaratilgani qayd etilgan.

"Dunyo" AA
Minsk

“Dunyo” AA
Minsk

Bugun jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida transport-logistika sohasini rivojlantirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yuklarni yetkazib berish jarayonidagi qulay infratuzilmaning mavjudligi yetkazib berish xarajatlarining kamayishi va sifatli xizmatni ta'minlashga yordam beradi. Zero,

IQTISODIY GRATSIYA VA transport-logistika

Prezidentimiz mahalliy kompaniyalar o'z salohiyatini jadal sur'atlar bilan karrasiga oshirishni ta'kidlab keladi. Zero, yuklarni

O'SISH, MIN BARQAROR

markazini ishga tushirish, bundan tashqari, o'tkazish punktlarini to'liq rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda.

TAQAVIY RIVOJLANISH

tlari beqiyos

Yevropagacha bo'lgan eng qisqa quruqlik yo'lagining asosiy bo'g'iniga aylanadi. Yana bir muhim jihat. O'zbekiston tashqi

Ochiq muloqot oldidan murojaat
 ko'rayotgan tadbirkorlarning aksariyati kichik
 va o'rta biznes vakillari. Ular masalani o'rta
 ga yish orqali muammo ko'tarish emas, balki
 zini qiyayotgan vaziyatga yechim topish,
 shundaylari yanada kengaytirish, shu sohada
 rivojlanib, katta ishbilarmonga aylanish, yuzlab,
 minglab yosh o'rinalari yaratishni maqsad qilgan.
 shunday bo'layti ham. Ma'lumotlarga ko'ra,
 ochiq muloqotlarda o'rta tashlangan
 tashabbuslar hayotga tatbiq etilishi
 ko'shilan qimmat zaniiri ishchirolklari

A hand is shown using a calculator. In the background, there is a bar chart with five bars of increasing height and a table with financial data. The table has columns for 'Date', 'Description', 'Debit', and 'Credit'. The first row shows '1/1/2020' and 'Opening Balance' with a debit of '1,000.00'. The second row shows '2/1/2020' and 'Sales' with a credit of '500.00'. The third row shows '3/1/2020' and 'Purchases' with a debit of '250.00'. The fourth row shows '4/1/2020' and 'Sales' with a credit of '750.00'. The fifth row shows '5/1/2020' and 'Purchases' with a debit of '300.00'. The sixth row shows '6/1/2020' and 'Sales' with a credit of '600.00'. The seventh row shows '7/1/2020' and 'Purchases' with a debit of '400.00'. The eighth row shows '8/1/2020' and 'Sales' with a credit of '800.00'. The ninth row shows '9/1/2020' and 'Purchases' with a debit of '500.00'. The tenth row shows '10/1/2020' and 'Sales' with a credit of '900.00'. The eleventh row shows '11/1/2020' and 'Purchases' with a debit of '600.00'. The twelfth row shows '12/1/2020' and 'Sales' with a credit of '1,000.00'. The final row shows 'Total' with a debit of '4,050.00' and a credit of '4,050.00'. The word 'DA' is written in large green letters on the left side of the image.

qulay sharoitlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Mazkur ishlar samarasida yuk tashish hajmi oshishga erishildi.

ilan navbatdagi ochiq muloqotida shuncha
tatta o'zgarishlarga yo'li ochiladi.
Ayni paytda muloqatlarni 1100 va 1094 qisqa
raqamli koll-markaz, business.gov.uz hamda
ny.chamber.uz/ochiqmuloqot/oz platformalari
ilegaramdagi @biznesombudsmanasmiriybot
va @ochiqmuloqot2026_bot orqali 24/7
dastlabdima qabul qilish davom etmoqda. Barcha
e'jkorlar o'zini qiyinayotgan masalalar, taklif
va tashabbuslarini faol bildirish orqali bo'lajak
ochiq muloqot kun tartibini shakllantirishda
shirok etishi mumkin.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro savdoshlarida tovarlarning respublika ichidagi qisqashtuvi va o'z vaqtida chiqib ketishini ta'minlashi kerak. Buning uchun logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish, yangilarini yaratish zarur.


Ayni paytda mamlakatimizda 27 ta logistika markazi mavjud, ularning umumiy quvvati 1,72 million tonnani tashkil etadi. Biroq faqat 1,1 mingga yuqori toifaga ega. Shuning uchun yangi logistika markazlarini yaratish zarur.

Xalqaro avtomatlashgan "A" toifadagi logistika

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yangi O'zbekiston ruhi



Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining mazkur tashabbusi 2021-yilda Turkiya davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlari tomonidan bir ovozdan ma'qullanib, amaliy ifodasini topdi. Nizomga ko'ra, mukofot har ikki yilda bir marta turkiya madaniyatini targ'ib etish, mintaqada tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda turkiya xalqlar o'rtasidagi ko'ra qirrali hamkorlikni kengaytirishga ulkan hissa qo'shgan shaxslarga topshiriladi.

Bir qarashda bu navbatdagi xalqaro mukofotlardan biri, xolos. Aslida, ushbu voqea zamirida teran ma'no mujassam. O'zbek mutafakkiri nomi bilan atalgan mukofotning butun turkiy dunyoning mustarak oliy e'tirofiga aylanishi, avvalo, tashabbusning xalqaro hamjamiyat tomonidan samimiy qabul qiliganidan dalolat. Mukofot, o'z navbatida, yurtimiz yuritayotgan ochiq, do'stona va tashabbuskor tashqi siyosatning amaliy samarasi o'laroq namoyon bo'ladi. Zero, turkiy xalqlar, qolaversa, butun dunyo hamjamiyati faqat ittifoqiy yoki siyosiy manfaatlar atrofidagina emas, balki mustarak ma'naviy qadriyatlar tovarigacha ham jipslashadi. Navoiy siymosi ana shunday birlashtiruvchi qudratga ega qadriyat ekanini bugun jahon ahli e'tirof etmoqda.

Xalqaro inukufot yakka tartibdagi tadbiri
emas, balki izchil tizimning uzviy bo'lg'imidir.
2021-yil fevralda Prezidentimiz qarori bilan
Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi
tashkil etildi. Fond zimmasiga ulug' shoir hayoti,
yukask insonparvarlik g'oyalari va ilmiy-adabiy
merosini yurtimizda hamda xalqaro miqyosda
keng o'rganish va targ'ib etish, asarlarini
xorijiy tillarga tarjima qilish, mukammal ilmiy
nashrlarni yaratish, har yili 9-fevral sanasida,
ya'ni mutafakkir bobomizning tavalludi kuni
xalqaro simpozium, yil davomida respublika va
xorijda "navoiylik konlari"ni o'tkazish kabi
mas'uliyatli vazifalar yuklatildi.

nazirlar bitgan. Ulug' bobomizning haykallari bugun Moskva, Vashington, Tokio, Boku, Seul, Dushanbe va Tbilisi kabi dunyoning yirik shaharlarida qad rostlab turibdi. Bularning barchasi Navoiy faqat o'zbek xalqininggina emas, jamiki turkiy xalqlar, qolaversa, butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Ulug' mutafakkirning:
Olam ahli, bilingizkim,
ish emasushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizga, erur yorlig' ish,
degan hikmatli dar'vati esa bugungi notinch
dunyoda har qachongidan ham dolzarb
yangramoqda. Hazrat Navoiy nomi turkiy xalqlar



**USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
OILING!**

o'nlab yangi monografiya va risola chop etildi, shoir ijodiga bag'ishlangan ko'plab doktorlik va falsafa doktori dissertatsiyalari himoya qilindi. Quvonarlisi, xorijiy mamlakatlarda navoiyshunoslik maktablari qaytdan tiklanmoqda: chet ellik olimlarning tadqiqotlari o'zbek tilida, navoiyshunoslarimizning asarlari esa turk, fors, rus va boshqa tillarda nashr etilmqda, xorijiy universitetlar bilan qo'shma ilmiy loyihalar yo'lga qo'yilmqda.

Maxsus qaror bilan 2025-yilning Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilininga esa bu boradagi ishlar yanada keng quloch yoyishiga zamin yaratdi. Ayni kunlarda Alisher Navoiy asarlarining 100 jildli ommabop nashri tayoqlash bo'yicha ishlar qizg'in davom etmoqda. Ushbu misli ko'rilmagan loyihalar ulug' mutafakkir merosini har bir xonadonda, har bir kitobxona yekazish yo'lidagi tarixiy qadamdir. Bularning barchasi navoiyshunoslik O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani, O'zbekiston esa tom ma'nodan jahon navoiyshunosligining markazi maqomida mustahkamlab borayotganini vaqqol ko'rsatadi.

* * *

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta'asis etilishi bir necha jihatdan strategik ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, mukofot mamlakatimiz madaniy diplomatiyasining samarali vositasiga aylandi. U O'zbekistonning dunyo navoiyushonligi markazi, turkii sivilizatsiyaning ma'naviy o'choqlaridan biri sifatidagi xalqaro mavqeiini yanada mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, mukofot turkiy davlatlarning o'rtasidagi integratsiya jarayonlariga mustahkam ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy va iqtisodiy hamkorlik mushtarak qadriyatlar bilan yo'g'rilgandagina chinakam barqaror bo'ladi. Navoiy siymosi esa qardosh xalqlarni birlashtiruvchi ana shunday bemisl qadriyatdir.

Uchinchidan, u yosh avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Chingiz Aymatov va Aziz Sanjar kabi buyuk shaxslarning e'tirofi etilishi millionlab yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib, ularni ilm-fan va ijod cho'qqilarini zabt etishga ilhomlantiradi.

To'rtinchidan, mukofot Navoiy ijodining mag'zini tashkil etuvchi tinchlik, do'stlik, bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalari ni jahonga targ'ib etadi. Qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda bu g'oyalarning qadr-qimmatini cheksizdir.

Ishonch bilan aytish mumkinki, vaqt o'tgan sayin Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning nufuzi tobora o'tib, u jahonning eng e'tiborli mukofotlari qatoridan munosib o'rin egallaydi. Zero, zamirida buyuk Navoiydek dahlo siymo, tinchlik va birlikdek ezuq g'oyalari turgan har qanday tashabbus uzoq oqmoq radi. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan O'zbekiston bu borada butun turkiy dunyoga, qolaversa, jahon hamjamiyatiga ma'naviy hamjihatlikning yorqin namunasini ko'rsatmoqda.

kamolot timsoli bo'lgan edi. Uning nomidagi mukofotning ham adabiyot, ham ilm-fan namoyandalariga berilayotgani mana shu ko'p qirrali dahoga munosib ehtiromdir.

* * *

Xalqaro mukofotning ta'sis etilishi
mamlakatimizda so'nggi yillarda
navoiyshunoslik sohasida qilinayotgan ulkan
ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi va maxsus qaroriga muvofiq, ulug' shoir tavalludining 580 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani, potaxtimizda Adilbar xiyoboni barpo etilgani, maydoni hayotimizning unutilmas voqealariga aylandi. Har yili 9-fevralda o'tkaziladigan an'anaviy xalqaro anjumnanlar, jumladan, "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" xalqaro simpoziumi dunyoning o'nlab mamlakatlardan kelgan olimlarni bir davraga jamlamoqda.

"Alisher Navoiy izidan" xalqaro ilmiy ekspeditsiyalari doirasida olimlarimiz Eron, Afg'oniston, Turkiya, Misr, Xitoy, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlardagi qo'lyozma fondlarida tadqiqotlar olib borib, nufuzli ilmiy markazlar bilan hamkorlik memorandumlarini imzolamoqda.

Mustaqillik yillarida yaratilgan eng sara tadqiqotlarni jamlagan 30 jildli "Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi" tadqiqotlar majmuasi nashr etilgani soha tarixida misli ko'rilmagan hodisadir. Shuningdek, to'rt jildli "Alisher Navoiy ensiklopediyasi" yaratildi.

Chingiz Aytmatovga vafotidan so'ng berildi va tantanali ravishda Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarovga topshirildi.

Aytmatov ijodi — turkiy xalqlar badiiy tafakkurining jahon adabiyotidagi eng yorqin timsoli. Uning asarlari dunyoning yuzdan ortiq tiliga oʻgirilib, millionlab kitobxonlar qalbidan joy olgan. Adib oʻz qahramonlari orqali turkiy xalqlarining ruhiyati, dardu armonlari va orzu-umidlarini umumbashariy adabiyot mulkiga aylantirdi.

Tashkilotning 2025-yil 21-mayda
Budapestda o'tkazilgan norasmiy sammitida
esa mukofotning natijadagi sohibi jahonga
mashhur biokimyogor olim, kimyo sohasida
Nobel mukofoti laureati, O'zbekiston Milliy
universiteti faxriy doktori Aziz Sanjar bo'ldi.
Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, nufuzli
mukofotning ilmiy jamoatchilik vakiliga
topshirilishi turkiy dunyo olimlarini, ayniqsa,
yosh tadqiqotchilarni yangi marallarni zabt
etishga ruhlandiradi.

Chingiz Aytmatov soʻz sanʼatida, Aziz Sanjar aniq fanlar olamida turkiy xalqlar salohiyatini butun jahonga namoyish etgan buyuk siymolardir. Demak, Alisher Navoiy nomidagi mukofot tur milliy doiradagi taqdirlov emas, balki turkiy xalqlarning jahon sivilizatsiyasiga qoʻshayotgan munosib hissasini eʼtirof etuvchidir. Yuksak mezoniga aylandi. Bunda ham oʻziga xos hikmat bor: azir hazrat Navoiyning oʻzi tur ham shoir, ham olim, ham davlat va jamoatlar arabi sifatida faoliyatning barcha sohalarida

Tibbiyot



Bobur PRIMQULOV,
Fargʻona viloyati Sogʻliqni saqlash
boshqarmasi boshligʻi

Hayotbaxsh islohotlar jarayonida viloyatimizda saksandan ortiq tibbiyot muassasasi rekonstruksiya qilindi, beshastamukammal ta'mirlandi. Talab va ehtiyojdan kelib chiqib, yangidan 30 dan ortiq tibbiyot maskani barpo etildi. O'tgan yilning o'zida tibbiyot sohasida xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokida umumiy qiymati 547 million dollar bo'lgan 60 dan ziyod istiqbolli loyiha amalga oshirildi. Hozirga qadar 58 ta zamonaviy loyiha foydalanishga topshirilishi hisobiga tibbiyot xizmat ko'rsatish ko'lami kengaydi, sifatini yaxshilandi, mingdan ortiq yuqori daromadli ish o'rti yaratildi.

Ana shunday istiqbolli loyihalardan biri Farg'ona viloyati OITSga qarshi kurashish markazi bilan bog'liq. Bu yerda UNOPS loyihasi doirasida uch qavatli laboratoriya binosi foydalanishga topshirildi. 2010-yilda qurilgan

hamda muassasani mintaqaviy hamkorlik markaziga aylantirish belgilangan. Shu orqali OIV bilan kasallanish holatlarini 30 foiz kamaytirish maqsad qilingan.

Davlat xususiy shiriklik tamoyili asosida viloyatimizda mingga yaqin xususiy tibbiyot maskani faoliyat ko'rsatib kelmoguda Viloyat markazidan tortib, eng oltin tuman va mahallalaracha zamonaviy infratuzilma ega davolash-tashxis klinikalari ishlab turibdi. Buning hisobiga aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va tibbiyot turizmi jadal rivojlanmoguda Yangi qurilib, foydalanishga topshirilgan tibbiyot maskanlarida shu yilning o'zida 200 mingga yaqin bemorga malakali tibbiy xizmat ko'rsatildi, 20 mingga yaqin murakkab jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Sohadagi yangilanish va o'zgarishlar natijasida bemorlarning 60 foizdan ortig'ini poytaxtimizdagi xitosislashgan markazlarga hamda 30 foizi xorijga shifo izlab borishining oldi olindi. Viloyat markazi, shahar va tumanlardagi tibbiyot muassasalarida ham yuqori texnologik jarrohlik amaliyotini o'tkazish imkoniyati yaratildi.

O'tgan yilning o'zida viloyatimizdagi 22 ta tibbiyot muassasasida qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi. Xususan, "Tibbiyotda zardobdosh 90 kunlik" loyihasi bo'yicha Quva tumanida qilingan ichkil sh-yarakartali soha rivojini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu yerdagi ish tizimi, holat o'zgardi, turli sarsangarchiliklar barhamat topdi. Aholiga namunali tibbiy xizmat ko'rsatish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, shifokorlarni o'rta tibbiyot himshiralar malaka-mahoratini oshirish, rag'batlantirish, kasalliklarni erta aniqlash bilan bog'liq zara sharoitlar yaratildi. Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun



viloyat byudjetidan 10 milliard soʻm ajratildi. Natijada tumandagi 21 ta tibbiyot muassasasida tibbiy xizmat koʻrsatish sifati tubdan yaxshilandi. Davolash-profilaktika muassasalarini raqamlashtirish, tibbiyot xodimlari malaka va mahoratini oshirish, ragʻbatlantirish tartibi joriy etildi.

Bag'dod tumanidagi Guliston turar joy mavzesida qariyb 60 milliard so'm evaziga zamonaviy shifoxona qurilishi poyoniga yetkazilyapti. U 4 ta tuman aholisiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozir Farg'ona va Quva tumanlarida
tizim faoliyatini jahon andozalari doirasida

takomillashtirish bo'yicha amaliy harakatlarni davom etmoqda. Shu kunga qadar tibbiyot muassasalari ikki mingdan ortiq axborot-kommunikatsiya texnologiyasi hamda zamonaviy tibbiy asbob-uskuna bilan ta'minlandi.

Farg'onada mintaqadagi eng yirik tibbiy klasterlardan biri shakllanmoqda. Bu umumiyligi qiymati qariyb 300 million dollar bo'lgan, 800 o'rinli zamonaviy shifoxona, tibbiyot universiteti va hamshiralari tayyorlash maktabini o'z ichiga olgan "Fergana Plus" tibbiy ta'lim klasteri loyihasi. Shuningdek, Avstriyaning AMEX Healthcare GmbH kompaniyasi bilan zamonaviy kardiologiya markazi ochish borasidagi

amaliy muzokaralar o'tkazilyapti. Loyiha doirasida kattalar bilan birga yangi tug'ilgan chaqaloqlardagi yurak kasalliklarini erta aniqlash, tashxislash va davolash xizmatlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Keyingi yillarda malakali mutaxassislar tayyorlash, shifokorlar mahoratiini oshirishga e'tibor o'rdi. Endi farg'onalik talaba va shifokorlar AQSHda to'liq grant asosida stajirovka o'taydi. Bunga Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti AQSHning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri — University of Michigan bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Hamkorlik doirasida institut professor-o'qituvchilari, shifokorlar, yosh olimlar va talabalar universitetning maxsus grant dasturlari orqali AQSHda 2-3 oylik ilmiy stajirovka o'tash imkoniga ega bo'ladi. Stajirovka ishtirokchilarining aviachipta, turar joy, yashash xarajatlari, tibbiy sug'urta va stipendiyalari Michigan universiteti grant mablag'larini hisobidan to'liq qoplanadi. Farg'onada xalqaro mahorot darslari va klinik treninglar tashkil etiladi. Shuningdek, institutda USMLE tizimi elementlarini joriy etish hamda tibbiyotda sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha xalqaro grant dasturlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Yaqinda Farg'ona viloyati delegatsiyasi bilan Malayziyada xizmat safarida bo'lib, soq'ligini saqlash sohasida hamkorlikni kengaytirishni bo'yicha qator uchrashuvlar o'tkazildi. Uchrashuvlardan biri tibbiy uskunalar va ehtiyoj qismlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Vital Healthcare kompaniyasi rahbariyati bilan bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida viloyatdagi gemodializ uskunalar va ehtiyoj qismlarini ishlab chiqarish bo'yicha kelishuvga erishildi. Loyihani amalga oshirish maqsadida 10 million dollar miqdoriga shartnoma imzolandi. Bu hamkorlik hududda yuqori texnologiyali tibbiy uskunalar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish, import o'rini bosuvchi mahsulotlar hajmini oshirish hamda nefrologik yordam yanada yaxshilash imkoniyatini beradi.



YANGI O'ZBEKISTON

Xalqaro e'tirof

YURTIMIZ ISLOM DUNYOSINING INTELLEKTUAL KELAJAGINI BIRLASHTIRMOQDA

JAHON ULAMOLARI TASHABBUSLARIMIZNI YANGI SIVILIZATSION JARAYON DEYA BAHOLADI

Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi nafaqat mamlakatimiz, balki jahon ilmiy-madaniy jamoatchiligi markazidagi eng yirik voqeikka aylanib ulgurdi. Buni forum doirasidagi tashkirlarning jahon ommaviy axborot vositalarida faol yoritilayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Xususan, Ozarbayjonning Ictimai TV telekanali forum haqida maxsus reportajni e'fira uzatdi. Misrning nufuzli "Al-Jumhuriya" gazetasida O'zbekistonda o'tayotgan xalqaro anjuman haqida maxsus maqola e'lon qilindi. Shuningdek, dunyoning boshqa yetakchi media tuzilmalari, nufuzli axborot agentliklari va yirik nashrlari ham ushbu xalqaro anjuman tafsilotlarini keng yoritishda davom etmoqda.

Tadbirning naqadar dolzarbligi xalqaro forum ishtirokchilarining samimiy fikr-mulohazalarida, ularning ma'ruzalari va o'zaro suhbatlarida ham yaqqol ifodasini topmoqda. Xorijlik mehmonlarning e'tirof etishicha, O'zbekiston asrlar davomida islom olamining ma'rifiy beshigi bo'lib kelgan va bugungi kunda bu an'analar yangicha qiyofada, yuksak tizimli asosda tiklanmoqda. Ajdodlarning boy ilmiy-ma'naviy merosi zamonaviy dunyo kontekstida qayta anglanmoqda.

Salim bin Muhammad al-MALIK, Islom dunyosi ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti — ICESCO Bosh direktori:

— Sivilizatsiya taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan ushbu muborak yurtga yana bir bor samimiy minnatdorlik izhor etaman. Bugun O'zbekistonning fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, iqtisodiy taraqqiyot va tashqi siyosat sohalarida erishayotgan yutuqlari xalqaro tashkilotlar tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. Bu, avvalo, sivilizatsiyaning o'zi uchun quvonchli voqeik. Shuningdek, butun islom olami uchun ham katta iftixor manbaidir.



Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga va mamlakat rahbariyatiga oqilona siyosati hamda euzu sa'y-harakatlari uchun samimiy tashakkur bildiraman.



Ibrohim NAJIM, Misr Arab Respublikasi Bosh muftiysining katta maslahatchisi, Jahon fatvo idoralari kengashining Bosh kotibi:

Muhammad bin Abdulkarim al-ISSA, Musulmonlar Jahon Ligasi bosh kotibi:

— Biz yaxshi bilamiz va bundan mamnunmizki, O'zbekiston xaritada oddiy davlat emas. U islom sivilizatsiyasi kitobiga yozilgan eng yorug' sahifalardan biri. Samarqanddan Buxorogacha, Registonan Imom Buxoriy ziyoratgohiga qadar barcha tarixiy yodgorliklar shu haqiqatni namoyon etadiki, bu zamin ilm-fan va insoniyat ma'naviy tafakkuri uchun yuksak ziyo maskanlarini barpo etgan buyuk ummatning merosidir.

Har bir ulug' millatning tamaddun tarixi uning keng qamrovli sarlavhasi. Bugun ana shu buyuk merosni yodga olar ekanmiz, bizning mas'uliyatimiz faqat o'tmish bilan faxrlanishdan iborat emas. Balki ilm va amal orqali, yuksak islomiy qadriyatlarga tayangan holda, sivilizatsiya ruhini bugungi hayotimizda qayta jonlantirishdir.


Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining islomiy, ilmiy va madaniy merosini qayta tiklash, uni asrab-avaylash hamda butun dunyoga tanitish borasidagi yuksak sa'y-harakatlarini alohida e'tirof etamiz. Bu borada muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining xizmatlari beqiyos. Alloh taolo u kishining sa'y-harakatlarini muborak qilsin va ular orqali el-yurtga manfaat ato etsin.



Mahmud EROL QILICH, Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish markazi — IRCICA bosh direktori:

— Ushbu yuksak tashabbus O'zbekistonning tarixiy jug'rofiyasida shakllangan buyuk sivilizatsion yutuqlarni yanada yoritib, mazkur boy merosning asosiy g'oya va qadriyatlarini kelajakka olib o'tish uchun yangi hamkorlik yo'llarini ochmoqda.

Forum bizga betakror tarixiy hududga yana bir bor aqliy, ma'naviy va qalban, shu bilan birga, geografik jihatdan ham sayohat qilish imkonini bermoqda. Movarounnahr, Xuroson va Markaziy



Shuningdek, O'zbekistonning islom olami, ayniqsa, Islom olami uyushmasi bilan mustahkam aloqalarini ham yuksak baholaymiz. Bu hamkorlik Makkai Mukarramada joylashgan tashkilot bosh qarorgohi bilan muntazam davom etib kelmogda.

Biz Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishini ham islom olamidagi eng yirik ilmiy va madaniy maskanlardan biri sifatida qadrlaymiz. Samarqand shahrida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ochilganini ham yuksak baholaymiz. Ayniqsa, ushbu markazda Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiyning boy ilmiy merosini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlar alohida ahamiyatga ega.

Osiyo asrlar davomida insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilgan, ilm-fanning turli sohalarini takomillashtirilgan va insoniyat tafakkuriga ulkan hissa qo'shigan buyuk sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan. Turli madaniy meroslar uyg'unlashgan ushbu zaminada islom dinining ilm-ma'rifatga bo'lgan da'vati hamda davlat rahbarlarining ilm ahliga ko'rsatgan ko'magi barcha sohalarida taraqqiyotga xizmat qildi.


Mazkur hududning madaniy tarixi musulmon xalqlari xotirasida alohida o'rin egallaydi. Bu meros men rahbarlik qilayotgan IRCICA — Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi hukumatlararo ilmiy-tadqiqot va madaniy muassasa faoliyatida ham muhim o'rinni tutadi. O'zbekiston bilan hamkorligimiz juda samarali kechmoqda. Zero, islom sivilizatsiyasi tarixini ushbu zaminada yashab ijod qilgan buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Xorazmiy va boshqa ko'plab ulug' zotlar merosiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Biz ularning ilmiy merosini o'rganish, kitoblarni nashr etish, ta'lim dasturlarini rivojlantirish va bu bilimlarni Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar hamda xalqaro akademik va madaniy jamoatchilikka yetkazish ustida ishlamoqdami.



Ahmad Abdull TARABEK, O'zbekiston madaniyati va tarixi bo'yicha olim, yozuvchi ("Misrdagi o'zbeklar tarixi", "Shavkat Mirziyoyev — Yangi O'zbekiston bunyodkori") kitoblari muallifi):

— "Shavkat Mirziyoyev — Yangi O'zbekiston bunyodkori" kitobida O'zbekistondagi sivilizatsiyaning tarixiy



Damir MUXETDINOV, Rossiya Federatsiyasi musulmonlari Diniy boshqarmasi raisining birinchi o'rinbosari:

— O'zbekistonda o'tkazilayotgan ushbu xalqaro forum menda juda katta taassurot qoldirdi. Bu yerda islomning haqiqiy mohiyati — tinchlik, bag'rikenglik, ilm-fan va ma'rifat g'oyalari nafaqat muhokama qilinmoqda, balki amaliy tashabbuslar bilan boyitilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston rahbariyatining buyuk allomalar merosini tiklash, asrab-avaylash va ularni jahon ilmiy jamoatchiligiga yetkazish borasidagi sa'y-harakatlari yuksak e'tirofga loyiq. Mazkur forum turli mamlakatlar olimlari va din arboblari birlashtirib, o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydigan muhim muloqot maydoniga aylangani quvonarli.

Men ishonamanki, ushbu forumdan tug'iladigan ilmiy va ma'rifiy tashabbuslar



Muhammad Said Amur al-HAJARIY, O'mon Davlat Kengashi a'zosi, senator:

— Yurtingizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamahshariy, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa ulug' olimlarning boy ilmiy merosi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning ilm-fan, ma'rifat va bag'rikenglikka asoslangan

bosqichlari nafaqat din va islom madaniyati, balki aniq fanlar hamda islomgacha bo'lgan davrlar misolida ham keng yoritilgan. Bugungi kunda mazkur yirik nufuzli forumda ushbu masalalarning ilmiy jihatlarini ochib berilishi bilan bir qatorda, ularning amaliy ifodasini markaz tarkibidagi muzeyda ham ko'rishimiz mumkin.

Bu yerda nafaqat Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi buyuk zotlarning islom merosiga qo'shgan hissalarini, balki Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy hamda Ibn Sino kabi mutafakkirlarning tibbiyot va geodeziya sohalaridagi ulkan yutuqlari ham alohida namoyish etilgan.

O'zbekistonning islom madaniyatiga qo'shayotgan bu kabi ulkan hissasi barchamizga cheksiz mamnuniyat bag'ishlaydi. Bu esa nafaqat arab va musulmon mamlakatlarida, balki boshqa musulmon bo'lmagan yurtlarda ham bugungi O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda.



nafaqat mintaq, shu bilan birga, butun musulmon olami uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi merosini xalqaro miqyosda targ'ib etishga qaratilgan sa'y-harakatlari barchaga ibrat bo'ladi.

qarashlari islom sivilizatsiyasining mustahkam poydevorlaridan biri bo'lib, butun insoniyat uchun muhim dasturlamal hisoblanadi.

Bunday xalqaro konferensiyalar mazkur boy merosni chuqur o'rganish, ilmiy muloqotni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro anglashuv va madaniy hamkorlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu mamlakatda ilm-fan, madaniyat va tarixiy merosga berilayotgan yuksak e'tiborning yorqin namunasidir.

Bugun Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, juda katta taassurot oldim. Bu yerdagi noyob ko'lyozmalar va eksponatlar nafaqat islom, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi tarixining bebaho boyligidir. Markazda amalga oshirilayotgan ishlar yuksak tahsiga loyiq.

Ishonamanki, O'mon Sultonligi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi ilmiy, madaniy va ma'rifiy hamkorlik kelgusida ham izchil rivojlanib, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro ishonchni yanada mustahkamlaydi.



Shayx Saloh ABULHOJ, Iordaniya xalqaro islom fanlari universiteti dekani:

Doktor Sali SHAHSIVARIY, "Al-Furqon" Islom merosi jam'armasi ijrochi direktori:

— Prezidentingiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi minbaridan turib islom sivilizatsiyasining buyuk allomalari va ularning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida bildirgan fikrlari bu yo'nalishdagi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Ushbu chaqiriq nafaqat islomning haqiqiy insonparvarlik mohiyatini anglash, balki buyuk olimlar merosini o'rganish va uni kelajak avlodlarga yetkazish zarurligini ham butun dunyo hamjamiyati e'tiboriga havola qildi.

Bugungi kunda insoniyat o'zaro muloqot, bag'rikenglik va ma'rifatga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezayotgan bir paytda, ushbu forum turli mamlakatlar olimlari, ulamolari va mutaxassislari uchun muhim ilmiy muloqot maydoniga aylanishiga ishonaman.

"Al-Furqon" Islom merosi jam'armasi ham O'zbekistonda islom sivilizatsiyasining boy



Mehmet Emin O'ZAFSHAR, Anqara universiteti ilohiyot fakulteti hadis kafedrasini mudiri:

— Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston tarixida Uchinchi Renessansni boshlab berdi deb o'ylayman. Hozir biz turgan Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekiston va butun turkiy dunyo tarixini o'zida namoyon etadi.

Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyari O'zbekistonni zamonaviy dunyoda barcha havas qiladigan yetakchi markazlardan biriga aylantirish uchun ko'p qirrali islohotlarni amalga oshirmoqda. Bir tomondan ta'lim sohasida keng ko'lami safarbarlik olib

— Ushbu anjuman biz uchun juda katta ehtirom bo'lib, dunyo miqyosidagi islom ulamolarning yirik yig'ilishidir. Mazkur tadbir nafaqat din doirasida, balki madaniyatlararo o'zaro tutashuvda ham o'ziga xos markazga aylandi.

Bu yerdagi ulamolarning hamda dunyodagi barcha musulmon mamlakatlar vakillarining yig'ilishi aynan O'zbekiston rahbariyati, muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyalarining tashabbuslari samarasidir. Zero, mazkur tashabbus zaminida O'zbekistondagi yana bir bor uyg'unlash, ya'ni Uchinchi Renessans g'oyasi yotgani barchamizni juda quvontiradi.

Albatta, forumda ulamolarning jam bo'lishi islom madaniyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Butun dunyoga Markaziy Osiyo ulamolarning bu yerdagi shakllangan sivilizatsiyasini yana bir bor tarannum etadi.



merosini asrab-avaylash, uni chuqur ilmiy tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlarni yuksak qadrlaydi.

Ishonamanki, ushbu forum nafaqat yangi ilmiy g'oyalar va samarali hamkorliklarga yo'l ochadi, balki O'zbekiston bilan xalqaro ilmiy va tadqiqot muassasalari o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlab, ularni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

borilmoqda, ikkinchi tomondan infratuzilma loyihalari davom etayotir, yana bir jihati esa xalqaro aloqalarga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, O'zbekistondagi ilmiy-tadqiqot markazlari o'zbek madaniyati, o'zbek tarixi hamda ushbu zaminning tarixiy ahamiyati naqadar ulug' ekanini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi nafaqat ilmiy anjuman, balki zamonaviy xalqaro munosabatlarda madaniy diplomatiya, ilm-fan va ma'rifat orqali o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan strategik platforma sifatida shakllanmoqda.

Mazkur anjuman O'zbekistonning boy ilmiy va ma'naviy merosini xalqaro akademik maydon bilan bog'lash, sivilizatsiyalar o'rtasidagi konstruktiv muloqotni kengaytirish hamda islom sivilizatsiyasining insonparvarlik, ilm va bag'rikenglikka asoslangan qadriyatlarini global darajada ilgari surishga xizmat qiladi.

Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cairi: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 tabaq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy